

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)
ORIPOV A. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'oz.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

| | |
|---|-----|
| Sh.Hakimova O'zbekistonda elektroenergetika sanoatining huquqiy-meyoriy asoslari | 113 |
| J.Bo'tayev XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida samarqand viloyati qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar | 118 |
| I.Bohodirov, B.Jurayev Turkistonda XIX asr o'rtalarida armiya va harbiy ta'lim | 123 |
| A.Yuldashev Davlat, boshqaruv va rahbarlik masalasiga oid tarixiy qarashlar va zamonaviy yondashuvlar..... | 129 |
| B.Ataxanov Mustaqillikning ilk yillarida o'zbekistonning Belarus respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari | 136 |
| Sh.Husanova Qadimgi Farg'onaning samoviy tulporlari | 140 |
| N.Komilov Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o'rinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari..... | 146 |
| G'.Raxmonov Farg'ona vodiysida suvdan foydalanishni yaxshilashda suvni tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etishning qulayliklari..... | 151 |
| O.Abdunosirova Iskandar Mirzo – madaniyat va san'at homiysi sifatida | 155 |
| Z.Abdullayev Turkistonda mol-mulk musodarasini va rekvizitsiya | 158 |
| S.Isroilova, G.Karimova Tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni loyihalashtirish..... | 163 |

ADABIYOTSHUNOSLIK

| | |
|--|-----|
| Z.Tashtemirova, E.Gizdulin Lirik she'riyatning turga oid xususiyatlari | 167 |
| N.Sidikova Yurt tarixi va el taqdiri talqinlari | 173 |
| A.Eshdavlatova Rauf parfi ijodida erkin ruhning nostandart isyoni ifodasi | 177 |
| J. Xalliyev Ogahiy tarixiy va lirik asarlarida falsafiy-ma'rifiy istilohlar istifodasida mushtaraklik..... | 182 |
| E.Qurbonova Yassaviy "Pirim" deb ulug'lagan zot | 186 |

TILSHUNOSLIK

| | |
|--|-----|
| K.Yusupova Imperativ konstruksiyalarda so'z tartibi..... | 190 |
| Yu.Shuxratova, A.Mamajonov O'xshatish munosabatini ifodalovchi morfologik vositalar..... | 195 |
| A.Yuldashev So'z yasalanishining kognitiv aspekti | 198 |
| X.Dusmatov O'zbek milliy so'z o'yinlarining reklama matnlarida ifodalanishi..... | 204 |
| N.Umarova, D.Madazizova Tilshunoslikda "argo" tushunchasi talqinlari..... | 211 |
| G.Majidova Til darslarida madaniyatni qamrab olish | 215 |
| L.Yo'ldosheva Muzeylarda turli xil mashg'ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish | 220 |
| N.Mamajonova Til darslarida lug'at boyligini oshirishni ilmiy tadqiq qilish | 224 |
| G.Isakova "Qanotli so'z" va "sitata" tushunchalarining o'zaro farqi..... | 229 |
| Z.Alimova Ayrim forsiy frazeologik birliklarning o'zbek tilida qo'llanilishi xususida | 233 |
| И.Попубай Zamonaviy lingvistik bilimlarda "axborot texnologiyalari diskursi" belgilash ta'rifi..... | 238 |

**DAVLAT, BOSHQARUV VA RAHBARLIK MASALASIGA OID TARIXIY QARASHLAR VA
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR**

**ИСТОРИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ КАСАТЕЛЬНО ГОСУДАРСТВА,
УПРАВЛЕНИЯ И РУКОВОДСТВА**

HISTORICAL AND MODERN APPROACHES TO STATE, GOVERNANCE AND LEADERSHIP

Yuldashev Avazbek Aripjonovich

Yuldashev Avazbek Aripjonovich

– *Namangan muhandislik-texnologiya instituti
Kengashi kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD).*

Annotatsiya

Maqolada davlat, boshqaruv va rahbarlik tushunchalarining mazmun-mohiyatini ochib berish, bularga oid tarixiy-ilmii qarashlarni ochib berish hamda zamonaviy yondashuvlarni yoritib berish maqsad qilingan. Ushbu maqsad yo'lida davlat, boshqaruv va rahbarlik tushunchalarining jamiyatni muvofiqlashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tartibga solish, ijtimoiy muhitni saqlash va rivojlantirishdagi o'rni yoritib berilgan. Shuningdek, bu boradagi qarashlarning insoniyatning davlatchilik tarixi davomida rivojlanib kelishi, davlat boshqaruvining tuzilishi, shakllari, rahbar shaxsi va uning boshqaruv uslublari, yondashuv xususiyatlari, ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ahamiyati bayon qilingan. Ushbu maqolada o'zaro qiyoslash, tizimlilik, tarixiylik, fanlararo va xolislik tamoyillaridan foydalanilgan.

Аннотация

Раскрытие сущности понятий государства, управления и руководства, исторические и научные взгляды на них, а также освещение современных подходов является поставленной целью в статье. По этому поводу в статье освещена роль государства, управления и руководство в координации, организации, контроле, регулировании общества, в охране и развитии социальной среды. Также изложены развитие взглядов по этому поводу на протяжении всей истории государственности, структура, формы государственного управления, личность руководителя и его методы управления, особенности подхода, их значение в общественно-политической жизни. В статье используются принципы взаимосопоставимости, структурности, историчности, междисциплинарности и объективности.

Abstract

The purpose of the article is to reveal the essence of the concepts of state, management and leadership, to reveal the historical and scientific views on them, as well as to highlight modern approaches. To this end, the role of the concepts of state, governance and leadership in the coordination, organization, control, regulation, preservation and development of the social environment is highlighted. It also describes the development of views in this regard throughout the history of human statehood, the structure, forms of public administration, the personality of the leader and his methods of governance, the characteristics of the approach, their importance in socio-political life. This article uses the principles of comparison, structure, history, interdisciplinary, and objectivity.

Kalit so'zlar: davlat, boshqaruv, rahbar, respublika, monarxiya, demokratiya, nodemokratiya, parlament, prezident, fuqaro, urf-odat, mentalitet.

Ключевые слова: государство, управление, руководитель, республика, монархия, демократия, антидемократия, парламент, президент, гражданин, традиция, менталитет.

Keywords: state, government, leader, republic, monarchy, democracy, non-democracy, parliament, president, citizen, tradition, mentality.

KIRISH

Har bir mamlakatning taraqqiyoti, zamon bilan hamnafas rivojlanishi, aholisining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi o'sha davlatdagi rahbarlarning bilim va malakasiga, boshqaruv mahoratiga, yondashuv uslubiga bevosita bog'liq. Insoniyat tarixida ilk davlatlar paydo bo'lgandan to hozirgi davrga qadar davlat va jamiyatlarni boshqarish, tarkibiy shakllantirish, tartibga solish, to'g'ri va teng siyosatni olib borish hamda kadrlar masalasi alohida e'tibor markazida bo'lgan. Davlat va jamiyatni boshqarish, xalqni yagona maqsad yo'lida birlashtirgan holda harakatlantirish masalasi o'tgan davrlar mobaynida o'zining dolzarbligini yo'qotmagan. Bu soha tadqiqotchi va olimlar tomonidan doimo o'rganilib, ular davlat, davlat boshqaruvi va rahbar tushunchalarining mazmun-mohiyatini yoritib kelganlar.

Bugungi kunda ham bu masalalar o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Sababi jahon mamlakatlarida iqtisodiy taraqqiyotni barqarorlashtirish, kambag'allikni qisqartirish, inson resurslari va fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanish, etnik va diniy nizolarni oldini olish hamda gender tenglikni ta'minlashda boshqaruv va rahbarlik masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Davlat va jamiyat oldida turgan muammolarning samarali yechimini topish, davlat va xalq manfaatlarini teng himoya qilish bevosita boshqaruv uslublariga hamda rahbarlik yondashuvlariga bog'liq hisoblanadi. Shu boisdan, davlat, boshqaruv va rahbarlik tushunchalarini tarixiy qarashlar bilan uyg'unlashtirib, zamonaviy yondashuvlarda o'rganish dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mamlakatni odilona boshqarish, hukmdorlarning siyosiy hayotda tutgan rolini oshirish hamda rahbarlarni tanlash va tarbiyalash, rahbarlik maxoratlarini oshirish borasida pand-nasixat shaklidagi fikr-mulohaza va tavsiyalar Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Abu Ali Xasan ibn Ali Tusiy – Nizomulmulkning "Siyosatnoma", A.Temurning "Temur tuzuklari", A.Navoiyning "Xamsa", Z.M.Boburning "Boburnoma" asarlarida uchraydi.

Uyg'onish davri mutafakkiri Abu Nasr Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyatni boshqarishda shahar hokimi o'n ikkita hislat-fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur deb hisoblaydi. Agar barcha hislatlarga ega odam topilmasa, shu hislatlarga ega odamlar guruhi birlashib, shaharga hokimlik qilishi lozim deydi. Rahbarlar fuqarolarning baxtga yetish yo'lidagi hayrli ishlarning mohiyatini anglashi va ularni ro'yobga chiqarish vositalarini bilishi kerak, deb ta'kidlab o'tadi.

Uzoq yillar Saljuqiylar saroyida vazirlik lavozimida faoliyat yuritgan Abu Ali Xasan ibn Ali Tusiy – Nizomulmulk o'zining kuzatish va qarashlarini umumlashtirgan holda "Siyosatnoma" asarini yaratgan. Ushbu asarda muallifning davlat boshqaruvi va hukmdor haqidagi qarashlari alohida ahamiyatga ega. U amir-u umarolarni insof va adolatga, mehr-muruvvatga, mamlakatni odilona boshqarib, tartib-intizomga qat'iy rioya etishga, aholi farovonligi-yu yurt obodligini ta'minlashga chaqiradi. Nizomulmulk munosib va oqil kishilarni lavozimga tayinlash borasida: "Hamma zamonda ham diyonatli va e'tiqodli aslzoda kishilarga vazifa berganlar. Agar qabul qilmasa, majbur qilib bo'yniga qo'yganlar, toki amal yaramas kishilarning qo'liga o'tib ketmasin. Shunda ra'iyat tinch bo'lib, mulk yaxshi nom qozonib, podshoh esa farog'atda yashagan", deya nasihat qiladi.

Amir Temur o'zining "Temur tuzuklari" asarida davlat boshqaruvi san'ati, rahbarlik mas'uliyati va mahorati kabi masalalarga e'tibor qaratgan. Uning fikricha, davlatni boshqarishda rahbar kengash, mashvaratu maslahat, qat'iy qaror, tadbirkorlik va ehtiyotkorlikka alohida ahamiyat berishi kerak. Shu sababli, Amir Temur vaqti-vaqti bilan olimlar, faylasuflar, hokimlar, tabiblar, munajjimlar, muhaddislar, amirlar, vazirlar, dongdor san'at namoyandalari, turfa kasb-hunar egalari bilan uchrashuvlar o'tkazib, ular bilan davlat va jamiyat boshqaruvidagi masalalarni maslahatlashib turgan. Ayniqsa, davlat boshqaruvidagi ko'p masalalarni o'z pirlari Shamsiddin Kulol, Sayyid Baraka, Zayniddin Abubakr Toybodiylar bilan maslahatlashgan. Amir Temurning fikricha, hech bir mansabdor o'ziga qo'yilgan talablar darajasida mukammal faoliyat yurita olmaydi. Mansabdor o'z kasbiy mahoratini o'z faoliyatida duch keladigan xilma-xil tashvish-muammolar, chigalliklarni yechish davomida oshirib boradi, buning uchun esa, uzoq vaqt talab etiladi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zining "Saddi Iskandariy", "Hayrat ul-abror", "Mahbub ul-qulub" va "Tarixi mulki ajam" asarlarida ideal hukmdor xususiyatlari, zamonaning mansabdor shaxslari, ularning faoliyati va axloqi to'g'risida tavsifiy-tanqidiy fikr-mulohazalarini bayon qiladi. Shuningdek, hukmdor va davlat arboblarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatdagi ijobiy, salbiy sifatleri, shaxsiy fazilatleri, ish yuritish uslublari hamda yaxshi va yomon ishlarini tahlil qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

“Davlat – mamlakat miqyosida jamiyatni uyushtirish masalalarini hal qilish, uning tashqi munosabatlarini belgilash vakolatlari bo‘lgan hukmron tuzilma” bo‘lib, u huquq asosida uyushgan, yagona hudud ustidan hukmronlik qilish, yagona hokimiyatga bo‘ysunish asosida birlashgan odamlarning umumiy ittifoqidir. Davlat jamiyatning yagonaligi, yaxlitligini ta‘minlaydigan, uning barcha a‘zolari bo‘ysunadigan boshqaruv va majburlov mexanizmiga ega siyosiy tashkilot hisoblanib, davlat va jamiyat munosabatlarida qonuniylik va huquqiy tartibotni ta‘minlaydi. Davlatlarning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy rivojida hukmdorning tutgan roli, mamlakatni odilona boshqarish usullari masalasida qadimdan turli qarash va yondashuvlar mavjud.

Davlatchilik tarixi insoniyat sivilizatsiyasining so‘nggi besh ming yilligi bilan bog‘lanib, ilk davlatlar xo‘jalikning ishlab chiqaruvchi shakllari – dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik rivojlangan hududlarda paydo bo‘lgan. Ilk davlatchilikning tarixiy ildizlari faqat ichki sabablarga bog‘liq bo‘lmay, balki tarixiy-madaniy munosabatlarning yuksak darajada rivojlanganligiga ham bog‘liq bo‘lgan.

Qadimda ishlab chiqarish tarmoqlari kengayib, aholi sonining ortishi, hududlarni kengayishi, urug‘lar o‘rtasidagi aloqalarni rivojlanib borishi qarindosh-urug‘chilik jamoasidan hududiy qo‘shnichilik jamoalariga o‘tishiga sabab bo‘lgan. Bu jamoalar o‘zaro ichki va tashqi muammolarini hal qilish, urf-odat va marosimlarni o‘tkazish maqsadida birlasha boshlaganlar. Natijada bu birlashgan jamoalardagi ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy munosabatlar va urf-odatlarni tartibga solish uchun dastlabki boshqaruv va mansablar paydo bo‘la boshlagan. Boshqaruvning ilk bosqichlari qadimgi zamonlarga borib taqaladi hamda uning paydo bo‘lish asoslari quyidagilardan iborat: ishlab chiqarish va ijtimoiy mehnat taqsimoti, tashqi harbiy bosqinlardan himoyalani zaruriyati, jamoadagi urf-odatlarni bajarish, jamiyatning ijtimoiy-amaliy vazifalar jihatdan bo‘linishi.

Boshqaruv davlatning asosiy vazifasi hisoblanib, u davlatning deyarli barcha vazifalarini amalga oshirishni o‘z ichiga qamrab oladi. Boshqaruv “hokimiyat” tushunchasi bilan birgalikda kelib, ular davlatning mohiyatini anglashga xizmat qiladi. Hokimiyat jamiyatni barqarorlashtiradigan, uyushqoqligini ta‘minlaydigan ijtimoiy hodisa bo‘lib, kishilarning ma‘lum bir maqsad yo‘lida birlashgan jamoasidir. Hokimiyat amalga oshgan joyda esa, albatta, boshqaruv prinsiplari mavjud bo‘ladi.

Davlat boshqaruvi – davlat hokimiyati va boshqaruvini tuzish hamda tashkil etishning muayyan tartibi bo‘lib, u davlat va jamiyatni tegishli institutlar orqali boshqarish, insonlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, millatlararo munosabatlarni tartibga solish, diniy bag‘rikenglik bilan aholining barcha qatlamlarini birlashtirish orqali ularni yagona maqsad sari harakatlantiradi. Mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatini oshirish yo‘lida izchil islohotlarni amaliyotga tadbiq etadi. Davlat boshqaruvidagi bu ishlar davlat va nodavlat institutlarga tayangan holda amalga oshiriladi.

“Davlat boshqaruvi”ni davlatning jamiyatda tutgan o‘rni va roldan kelib chiqqan holda, boshqaruvni amalga oshiruvchi institut, uning maqsad va vazifalari, yo‘nalishlari majmui sifatida tavsiflash mumkin. Davlat boshqaruvi jamoat tashkilotlarining aloqalarini hamda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyatlarining faoliyatini qamrab oladi. Shuningdek, jamiyatdagi a‘zolarining birgalikdagi harakatlarini tashkil etgan holda, ularning yaxlitligini, bir-biriga mosligini va tartib-intizomini ta‘minlaydi.

Davlat tushunchasi va uning mazmun-mohiyatini anglashda davlat boshqaruvi shakli alohida ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv shakli davlat hokimiyatini tashkil etish va amalga oshirish tizimini anglatadi.

Davlat boshqaruvining monarxiya (yun. “monarshia”– yakka hokimlik) shaklida hokimiyat bir kishi tomonidan boshqarilib, u vorislik asosida avloddan-avlodga o‘tib boradi. Monarx davlat boshqaruvida mustaqil bo‘lib, o‘z faoliyati xususida hech kim oldida javob bermaydi. Monarx Sharqda amir, xon, sulton, podshoh nomlari bilan atalsa, G‘arbda ularga qirol, imperator, gersog, knyaz nomlari berilgan.

Monarxiya boshqaruvining mutloq, konstitutsiyaviy va teokratik shakllari mavjud. Mutloq monarxiya boshqaruvi shaklida davlat boshlig'ining vakolatlari cheksiz hisoblanib, u hokimiyatni meros yoki qarindoshlik aloqalari bo'yicha egallaydi va undan muddatsiz foydalanadi. Boshqaruv faoliyatida o'z hatti-xarakatlari uchun qonun yoki biror davlat organi oldida javob bermaydi. Bugungi kunda Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Ummon, Qatar kabi davlatlarda mutloq monarxiya boshqaruv shaklidan foydalaniladi.

Mutloq monarxiyadan farqli bo'lgan konstitutsion monarxiyada, monarxning vakolatlari konstitutsiya va qonun asosida yoki davlatning biror-bir vakolatli idorasi tomonidan cheklangan bo'ladi. Konstitutsion monarxiyaning parlamentar va dualistik turlari mavjud bo'lib, parlamentar monarxiyada davlat boshqaruvi jarayonlarida monarx bilan birga, parlament, hukumat va boshqa organlar ham ishtirok etadi. Bunda ko'p partiyaviylik asosida shakllangan parlamentning boshqa organlarga qaraganda vakolati ko'proq bo'ladi hamda hukumat parlament oldida hisobdor bo'ladi. Monarx mamlakatdagi boshqaruv qadriyatlarining milliy ramzi sifatida e'zozlanib, siyosiy hayotda kam ishtirok etadi. Parlamentar monarxiya dualistik monarxiyaga qaraganda ancha keng tarqalgan. Dualistik monarxiyada monarxning ayrim vakolatlari konstitutsiya va boshqa qonun hujjatlari bilan cheklangan bo'ladi, ammo boshqaruvda keng hokimiyat uning qo'lida saqlab qolinadi. Dualistik monarxiyada parlament va hukumat mavjud bo'lib, ularni shakllantirish monarxning vakolati hisoblanadi. Monarx parlamentni tarqatib yuborish yoki ular qabul qilgan qonunlarga veto qo'yish huquqiga ega bo'ladi. Parlamentar monarxiya boshqaruvidagi davlatlarga Buyuk Britaniya, Ispaniya, Daniya, Kanada misol bo'lsa, dualistik monarxiya boshqaruvidagi davlatlarga Monako, Lixtenshteyn, Quvayt, Baxrayn, lordaniya, Morokko misol bo'ladi.

Teokratik monarxiya kam uchraydigan davlat boshqaruvi shakli bo'lib, unda siyosiy hokimiyat va ma'naviy kuchlar diniy yetakchi qo'lida bo'ladi. Boshqaruvda muhim davlat ishlari diniy qonun-qoidalarga asosan amalga oshiriladi. Diniy arbob va ulamolar davlat siyosatida hal qiluvchi kuchga ega bo'ladilar. Bunday davlatlarga Saudiya Arabistoni, Bruney Qirolligi va Vatikanni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Davlat boshqaruvining respublika (lot. "res publisa" – jamoat ishi, umumxalq ishi) shaklida davlat hokimiyati va boshqaruvning oliy organlari bevosita xalq yoki xalq saylagan vakillar tomonidan ma'lum bir muddatga saylanadi yo shakllantiriladi. Boshqaruvning respublika shaklida hokimiyat oliy organlar o'rtasida taqsimlanib, qonunlarning bajarilishini nazorat qiluvchi va ijro etuvchi organlar mavjud bo'ladi. Fuqarolar davlat ishlarini boshqarishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etadilar.

Respublikaning prezidentlik, parlamentar va aralash shakllari mavjud. Boshqaruvning prezidentlik respublika shaklida "kuchli prezident" qoidasiga asoslanadi, prezident xalq yoki saylovchilar hay'ati tomonidan saylanadi. Prezident bir vaqtning o'zida ham hukumat, ham davlat boshlig'i hisoblanib, hukumatni to'g'ridan-to'g'ri tuzadi yoki tarqatib yuboradi. Parlament esa, hukumatga sezilarli ta'sir ko'rsata olmaydi. Shuningdek, prezident parlament qabul qilgan qonunlarga veto qo'yish huquqiga ega hisobalanadi. AQSh, Argentina, Turkiya, Belorussiya, Qozog'iston shunday boshqaruv shaklidagi davlatlarga misol bo'ladi.

Parlamentar respublika shaklida parlament davlat hokimiyati organlari orasida alohida mavqega ega bo'lib, "kuchli parlament" qoidasi amalda bo'ladi hamda u davlat siyosatini olib borishda asosiy vazifani bajaradi. Parlament Hukumatni tuzishda yoki tarqatib yuborishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababli, Hukumat parlament oldida hisobdor hisoblanadi. Parlamentar respublikada prezidentlik lavozimi mavjud bo'lsa-da, odatda, u katta mavqega ega bo'lmaydi. Bunga Germaniya, Italiya, Avstriya, Armaniston, Hindiston, Pokiston kabi davlatlarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Aralash respublika boshqaruv shaklida bir vaqtning o'zida "kuchli prezident" va "kuchli parlament" mavjud bo'ladi. Prezident umumxalq ovoz berish yo'li bilan saylanadi va keng vakolatlarga ega bo'ladi, ammo hukumat boshlig'i hisoblanmaydi. Hukumat prezident va parlamentning teng ishtirokida shakllantirilib, unga keng vakolatlarga ega bo'lgan Bosh vazir rahbarlik qiladi. Hukumat ham parlament (ishonchsizlik votumi), ham prezident oldida (iste'fo) hisobdor bo'ladi.

TARIX

Boshqaruv shakllari har bir davlatlarning tarixiy qadriyat va an'analari, mintaqaviy shart-sharoitlari hamda fuqarolarining siyosiy dunyoqarashi asosida shakllantiriladi. Boshqaruvning qanday shakli amalda bo'lishidan qat'iy nazar, u yerda qonun ustuvorligi ta'minlangan, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilingan hamda ularni erkin yashashi uchun munosib shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi muhim hisoblanadi. Bu albatta, davlat boshqaruvida "siyosiy rejim" bilan bog'liq bo'lib, hokimiyatni amalga oshirishda foydalaniladigan tartib va usullarga aloqador bo'ladi.

Boshqaruvning siyosiy rejimi aholining manfaatlarini hisobga olinishiga qarab demokratik va nodemokratik turlarga bo'linadi. Nodemokratik rejimda demokratik prinsip va qoidalar tan olinmaydi. Bu rejim ham o'z navbatida totalitar, fashistik va avtokratik ko'rinishlarda uchraydi. Totalitar rejimda ko'p partiyaviylik tizimi rad etilib, jamiyatda yakka partiya yetakchi kuch hisoblanadi. Hukmron partiya davlat organlarini nazorat qilib turadi va siyosiy plyuralizmga yo'l qo'ymaydi. Partiya yetakchisi davlat rahbari hisoblanadi. Fashistik rejim totalitar tuzumning avj olgan shakli bo'lib, unda millatchilik mafkurasiga tayangan holda, insonlarning millati yoki irqiga qarab huquq va burchlari belgilanadi. Avtokratik rejimda esa, fuqarolarning huquqlari cheklangan yoki umuman belgilanmagan, mamlakatni boshqarish yakka bir shaxsda yoki ma'lum bir tabaqa vakillari qo'lida bo'ladi.

Demokratik rejimda insonlarning tengligi va erkinligi tan olinadi, fuqarolar turli jamoat tashkilotlari yoki saylovlarda qatnashish orqali davlat boshqaruvida ishtirok etadilar. Demokratik rejimning vakillik demokratiyasi va bevosita demokratiya turlari mavjud bo'lib, vakillik demokratiyasida xalq o'zi saylagan deputatlari orqali davlat ahamiyatiga molik masalalarni muhokama qilish va qarorlar qabul qilishda ishtirok etadi. Bevosita demokratiyada esa, davlat boshqaruvida xalqning bevosita ishtiroki ta'minlanadi, ya'ni davlat ahamiyatiga molik masalalar referendum shaklida hal etiladi.

Davlat boshqaruvida rahbarlik masalasi muhim sanaladi. Bunda davlatni qaysi rahbar boshqaradi, qanday boshqaradi degan savollarga ko'plab javoblar topish mumkin. Olimlar rahbarlik faoliyatini avtoritar, demokratik, liberal kabi uchta uslubga ajratganlar.

Avtoritar uslubda hodimlar faqat rahbar tomonidan berilgan vazifalarni bajaradilar va ular o'zlari manfaatdor bo'lgan bir tomonlama ma'lumotga ega bo'ladilar. Rahbarlikning demokratik uslubida qarorlar qabul qilish, ularni hal etishda xodimlarni keng jalb qilish bilan farqlanadi hamda boshqaruvda muvofiqlashtirish va nazorat qilishning jamoaviy shakllaridan ko'proq foydalaniladi. Rahbar vakolatlarining ba'zilar qo'l ostidagilarga o'tkazib beriladi. Bu uslubda xodimlar o'z faoliyatining kelajagi va rivoji to'g'risida kerakli ma'lumotlar hamda zarur axborotlarga ega bo'ladilar. Rahbarlikning liberal uslubi esa, rahbari jamoa a'zolarining ishlariga kam darajada aralashuvi bilan farqlanadi. Rahbar jamoa a'zolari orasida vositachi rolini bajaradi. Xodimlarning samarali faoliyat olib borishi uchun ularni kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlab boradi. Bunday vaziyatlarda jamoa a'zolari o'z ishlarini aniq rejalashtirgan holda tashkil etadilar va rahbarga faqat kerakli vaziyatlardagina murojaat qiladilar.

Mutaxassislar fikricha, amalda aniq bir uslub sof holda qo'llanilmay, ko'p hollarda bir necha uslublar yig'indisidan foydalaniladi. Faol rahbar ongli ravishda muayyan uslubning ijobiy tomonlaridan foydalanishga, salbiy tomonlarini bartaraf etishga harakat qiladi.

Psixologlar "rahbar shaxs"larni uch guruhga bo'lib, ya'ni biografik tavsif, qobiliyat va shaxsiy xislatlariga qarab o'rganishgan. Boshqaruv faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishda rahbarning yoshi alohida o'ringa ega. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, rahbar xodim bitta tizimda 30 yildan ortiq faoliyat olib borgan bo'lsa, u shu sohaning tajriba manbaiga aylangan bo'ladi. Agar ularning sog'lig'i joyida bo'lsa, ulardan yuqori bo'g'in rahbarlik lavozimlarida foydalanish yaxshi samara beradi deb hisoblanadi. Xalqimizda "qari bilganni pari" bilmas degan naql bekorga aytilmagan. Masalan, Yaponiya qayta ishlab chiqarish kompaniyalari rahbarlarining o'rtacha yoshi 63,5 bo'lsa, bu ko'rsatkich Amerikada 59 yoshni tashkil qilgan. Biroq, fan-texnika taraqqiy topib, boshqaruvga joriy etilayotgan zamonaviy texnologiyalarni yuqori yoshdagi rahbarlar tomonidan o'zlashtirilishi qiyin kechmoqda. Shu sababli, yosh rahbarlarga ilg'orlik, tezkorlik va yangi g'oyalar olib kiruvchi omil sifatida qaralmoqda. Yosh rahbarlarda (30-35 yosh) yangilik va kashfiyotlarga moyillik, ijodiylik, qo'rqmaslik va o'zgaruvchan muhitga moslashuvchanlik yuqori bo'ladi. Lekin kadrlar 35-55 yoshda o'z kasbining ustasiga aylanib, ularda

sohada kashfiyotlar qilishga ishtiyoq kuchayadi hamda vaziyatni sovuqqonlik bilan tahlil qilish va vazminlik kayfiyati shakllanadi. Ammo rahbarlarning yoshi qancha bo'lishidan qat'iy nazar, ularda yangi texnologiyalarni egallashga bo'lgan ishtiyoq va zamon talablariga moslashish qobiliyati yuqori bo'lsa, albatta samarali faoliyat olib borish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Rahbarlikda ijtimoiy-iqtisodiy mavqe va ma'lumot muhim ahamiyat kasb etadi. Soha mutaxassislarining fikriga ko'ra, rahbarning ijtimoiy-iqtisodiy mavqei muvaffaqiyatli boshqaruv bilan 94 foiz bog'liq bo'lsa, uning ma'lumotiga 88 foiz bog'liq ekan. Shu bilan birga, rahbarlarning shaxsiy intellekti ham yaxshi shakllangan bo'lishi kerak. O'ta yuqori intellekt shaxsda yuksak rahbarlik mahoratlarini namoyon qilishga xalaqit berar ekan. Chunki, rahbarni qaror qabul qilishda haddan tashqari aql ishlatishi jarayonni cho'zib yuborishga sabab bo'lar ekan. Shu sababli, ba'zi tadqiqotchilar, rahbarda nazariy aqldan ko'ra, amaliy aql rivojlangan bo'lishi muhimroq degan xulosaga kelishgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shuni qayd etish lozimki, boshqaruv tizimidagi rahbar kadrlar o'z vazifalarini amalga oshirishda burch va majburiyatga ega bo'lish bilan birga, munosib vakolatga ham ega bo'lishlari lozim. Boshqaruvda majburiyat bilan vakolat o'rtasidagi muvozanatni teng bo'lishiga alohida e'tibor qaratish kerak. Albatta, bu demokratik prinsiplar bilan birga, markaziy va mahalliy davlat hokimiyatlari o'rtasidagi vakolatlarning taqsimlanishiga ham bog'liq hisoblanadi.

Belgilangan majburiyat va vazifalar, berilgan vakolatlarni munosib taqsimlanishida rahbar ham yuksak darajada ishbilarmon, ma'naviy-axloqiy yetuk, jamoada birdamlikni ta'minlaydigan, kelajakni ko'ra oladigan, iqtisodiy bilimlarga ega, tartib-qoidaga rioya etadigan, mas'uliyatni to'liq his qiladigan hamda o'zgarishlarga tez moslasha oladigan bo'lishi lozim. Shu bilan birga, rahbar xodim turli vaziyatlarda o'zini xotirjam tutgan holda ishonch bilan tashkilotchilikni qo'lga olib harakat qilishi kerak. Rahbar maslahat berish bilan birga hodimlarni tinglay olishi ham lozim. Xodimlarning bilim va qobiliyatiga to'g'ri baho berib, ularni egallab turgan lavozimiga munosibligini aniqlay olishi zarur. Chunki, amalga oshirilayotgan ishlar, islohotlar jarayoni, ma'naviy-axloqiy muhitning sog'lomligi birinchi navbatda rahbarga bog'liq hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, davlat, boshqaruv va rahbarlik tushunchalari uzoq o'tmishga borib taqalib, insoniyatning davlatchilik tarixi davomida bu tushunchalarning mazmun-mohiyati va qamrovi tobora kengayib bordi. Ijtimoiy-siyosiy hayotda muhim o'rin egallagan bu tushunchalar, jamiyatni muvofiqlashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tartibga solish, ijtimoiy muhitni saqlash va rivojlantirishda asosiy omillarga aylandi. Jamiyatni o'z qonun-qoidalariga ko'ra idora qiladigan, turli tip va shakllardan tashkil topgan – "davlat" atamasi hamma zamonlarda ham o'zining dolzarbligini yo'qotmadi. Davlat, boshqaruv va rahbarlik tushunchalarining mazmun-mohiyatini kengayib, funksiyalarini takomillashib borishi hamda ularga oid qarashlarni rivojlanishi davlat va jamiyat, rahbar va boshqaruvga oid bilimlarni kengayishiga xizmat qildi.

Davlat boshqaruvi mamlakatdagi jamoat va davlat tashkilotlarining faoliyatini qamrab olib, ularning yaxlitligini, yagona maqsad yo'lida birdam harakatini ta'minlashga xizmat qiladi. Barcha davlatlar o'zining tarixiy qadriyat va an'analari, mintaqaviy shart-sharoitlari hamda fuqarolarining siyosiy-huquqiy dunyoqarashi asosida boshqaruvini shakllantirgan. Boshqaruvning qanday shakli amalda bo'lishidan qat'iy nazar, o'sha davlatda qonun ustuvorligini ta'minlanishi, fuqarolarning huquq va manfaatlarini munosib himoya qilinishi asosiy mezon hisoblangan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy, 1993. – B. 159. (Abu Nasr Faroobi. A city of noble people. - Tashkent: A.Qodiriy, 1993. - P. 159.)
2. Nizomulmulk. Siyosatnoma (Siyar ul-mulk). Ikkinchi to'ldirilgan, qayta nashr. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – B. 147. (Nizomulmulk. Politics (Siyar ul-mulk). Second completed, reprinted. - Tashkent: Yangi asr avlodi, 2008. - P. 147.)
3. Amir Temur Ko'ragon. Temur tuzuklari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – B. 196. (Amir Temur Koragon. Temur's rules. - Tashkent: Fan va texnologiya, 2014. - P. 196.)

TARIX

4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – B. 4. (National Encyclopedia of Uzbekistan. - Tashkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. - P. 4.)
5. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – B. 9. (Eshov B. History of state and local government in Uzbekistan. - Tashkent: Yangi asr avlodi, 2012. - P. 9.)
6. Sagdullaev A., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi (qadimgi davrdan XIX asrning o'rtalariga qadar). – Toshkent: Akademiya, 2006. – B. 26-27. (Sagdullaev A., Mavlonov O'. History of public administration in Uzbekistan (from ancient times to the middle of the XIX century). - Tashkent: Akademiya, 2006. - P. 26-27.)
7. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – B. 7. (National Encyclopedia of Uzbekistan. - Tashkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. - P. 7.)
8. Quranboev Q. Davlat boshqaruv kadrlari tizimi: shakllanish va rivojlanish muammolari (Siyosiy-ijtimoiy jihatlar). Siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2008. – B. 18. (Qurbanbaev K. The system of public administration: problems of formation and development (political and social aspects). Dissertation for the degree of Doctor of Political Science. - Tashkent, 2008. - P. 18.)
9. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. – Toshkent: Adolat, 2009. – B. 314. (Legal Encyclopedia of Uzbekistan. - Tashkent: Adolat, 2009. - B. 314.)
10. Монархия. <https://ru.m.wikipedia.org>. (Monarchy. <https://ru.m.wikipedia.org>.)
11. Форма государственного правления. <https://ru.m.wikipedia.org>. (Form of government. <https://ru.m.wikipedia.org>)
12. Форма государственного правления. <https://ru.m.wikipedia.org>. (Form of government. <https://ru.m.wikipedia.org>)
13. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. – Toshkent: Adolat, 2009. – B. 383. (Legal Encyclopedia of Uzbekistan. - Tashkent: Adolat, 2009. - B. 383.)
14. Форма государственного правления. <https://ru.m.wikipedia.org>. (Form of government. <https://ru.m.wikipedia.org>)
15. Форма государственного правления. <https://ru.m.wikipedia.org>. (Form of government. <https://ru.m.wikipedia.org>)
16. Форма государственного правления. <https://ru.m.wikipedia.org>. (Form of government. <https://ru.m.wikipedia.org>)
17. Odilqoriev X. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2018. – B. 96-98. (Odilkoriev H. Theory of state and law. - Tashkent: Adolat, 2018. - P. 96-98.)
18. Odilqoriev X. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2018. – B. 98-99. (Odilkoriev H. Theory of state and law. - Tashkent: Adolat, 2018. - P. 96-98.)
19. Axmedov X. Islom Karimov asarlarida raxbar kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-siyosiy masalalari. Siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2008. – B. 34-35. (Akhmedov H. Socio-political issues of leadership training in the works of Islam Karimov. Dissertation for the degree of Candidate of Political Science. - Tashkent, 2008. - P. 34-35.)
20. Axmedov X. Islom Karimov asarlarida raxbar kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-siyosiy masalalari. Siyosiy fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2008. – B. 35. (Akhmedov H. Socio-political issues of leadership training in the works of Islam Karimov. Dissertation for the degree of Candidate of Political Science. - Tashkent, 2008. - P. 35.)
21. Xolbekov A., Jumaev R., Umarova N. va boshq. Boshqaruvning ijtimoiy-siyosiy yo'nalishlari. DJQA.-Toshkent: G'.G'ulom, 2008. – B. 493. (Kholbekov A., Jumaev R., Umarova N. and others. Socio-political aspects of governance. DJQA.-Tashkent: G. Gulom, 2008. - P. 493.)
22. Xolbekov A., Jumaev R., Umarova N. va boshq. Boshqaruvning ijtimoiy-siyosiy yo'nalishlari. DJQA.-Toshkent: G'.G'ulom, 2008. – B. 496. (Kholbekov A., Jumaev R., Umarova N. and others. Socio-political aspects of governance. DJQA.-Tashkent: G. Gulom, 2008. - P. 496.)

(Taqrizchi: B.Usmanov – tarix fanlari doktori)